



SADOQAT KUYCHISI LIRIKASIGA BIR NAZAR

Xolmirzayeva Go'zal Ravshan qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

Universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-kurs magistranti

Xolmirzayevagozal@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada vafo va sadoqat kuychisi sanalmish Zulfiyaxonim lirikasini atroflicha tahlil qilingan. Maqolada shoiraning hayot yo'li va uning ijodiga Hamid Olimjonning ta'siri to'g'risida fikrlar keltirilgan. Xususan, Zulfiyaning lirikasidagi ruhiyati va kechinmalarini she'rlari orqali tahlilda ochiq ifodalab berilgan. Maqolada shuningdek, Zulfiya Isroilovanning ijodiy uslubi, she'rlari va adabiy merosining o'ziga xosligi, uning yaratgan badiiy obrazi va jamiyatdagi ta'siri o'rganiladi. Shoiraning asarlari o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutib, uning ijodi davomida o'zgacha estetika va tushunchalar shakllangan. Uning o'zbek she'riyatidagi o'rni va takrorlanmas ijodi, bahor kuychisi sifatida she'rlaridagi chorlovlar ham qiyosan yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Lirika, o'zbek adabiyoti, bahor, she'rlar, o'zbek she'riyati, shoir, ayollarning jamiyatdagi o'rni, xalqaro mukofotlar, mehnatkashlik, badiiy ijod, vatanparvarlik, she'riyat, adabiy meros, Hamid Olimjon, ijodiy faoliyat.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the lyrics of Zulfiyaxanim, considered a singer of loyalty and devotion. The article presents thoughts on the poet's life path and the influence of Hamid Olimjon on her work. In particular, the analysis of Zulfiya's psyche and experiences in her lyrics is openly expressed through her poems. The article also studies Zulfiya Isroilova's creative style, the uniqueness of her poems and literary heritage, the artistic image she created, and her influence on society. The poet's works occupy an important place in Uzbek literature, and unique aesthetics and concepts have been formed during her work. Her place in Uzbek poetry and her unique work, as a singer of spring, are also comparatively highlighted.*

Keywords: *Lyrics, Uzbek literature, spring, poems, Uzbek poetry, poet, the role of women in society, international awards, hard work, artistic creativity, patriotism, poetry, literary heritage, Hamid Olimjon, creative activity.*

Аннотация: *В данной статье подробно анализируется лирика Зульфяханим, которая считается певицей верности и преданности. В статье содержатся мнения о жизненном пути поэтессы и влиянии Хаида Олимджона на ее творчество. В частности, психика и переживания Зульфийи в ее лирике открыто выражаются в анализе через ее стихи. В статье также рассматривается своеобразие творческого стиля, стихов и литературного наследия Зульфийи Исраиловой, ее художественный образ и влияние на общество. Произведения поэтессы занимают важное место в узбекской литературе, в ходе ее творчества сформировались особая эстетика и концепции. Сравнительно освещено его место в узбекской поэзии и его уникальное творчество, а также призывы в его стихах как певца весны.*

Ключевые слова: *Лирика, узбекская литература, весна, стихи, узбекская поэзия, поэт, роль женщины в обществе, международные награды, трудолюбие, художественное творчество, патриотизм, поэзия, литературное наследие, Хамид Олимджон, творческая деятельность.*



O‘zbek adabiyoti... Bu uzluksiz karvon asrlar davomida ne-ne betakror iqtidorlar, qanchadan-qancha buyuk yozuvchilar-u, nazm ustalarini ko‘rdi. Ularning deyarli barchasi o‘z ijodlarida insoniyat hayoti, qalbi, ruhidagi kechinmalarni turli usullarda gavdalantirdilar. Shunday ardoqli ijodkorlardan biri haqiqiy o‘zbek ayoli timsolini o‘zida aks ettirgan XX asr o‘zbek she‘riyatining yorqin vakilasi, bahor, muhabbat, hijron kuychisi Zulfiyaxonim Isroilovadir. Zulfiyaxonim ijodining yorqin belgisi shundaki, bu ijod sarchashmasi zamon, makon va yoki qalb tanlamagan.

Hamon e‘tiqodim – haqiqat, haqdir,
So‘zlayman, yuzimni tutib Ka‘baga,
Yemira olmaydi o‘tkinchi taqdir,
Osuda o‘tadi ruhim abadga.
E‘zozlar, ardog‘lar uchun tashakkur,
Asli siz oftobim, men ziyosiman.
Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur,
Baxtim shul – o‘zbekning Zulfiyasiman!¹

U hayoti va ijodining har ikki davrida ham Hamid Olimjonga bo‘lgan cheksiz mehri, she‘riyat an‘analariga sodiq qoldi. Hamid Olimjonga bo‘lgan muhabbat uning she‘riyatiga ilhom berdi. Yuqoridagi satrlar ham fikrimizning yaqqol dalilidir. Shoiri ushbu she‘rida e‘tiqodi haqiqat ekanini, faqat haq so‘zlashini kitobxonga sodda tilda tushuntira bilgan, u o‘ziga ko‘rsatilgan e‘zozlar uchun takror va takror tashakkur aytgan. Zulfiya faxr va iftixorga to‘lgan qalbi birla “Baxtim shul – o‘zbekning Zulfiyasiman!” satrlarini baralla yoza olgan.

Erta bahor bilan tug‘ilib, uni kuylab yashagan, har bahorda “Salqin saharlarda, bodom gulida, binafsha labida, yerlarda bahor” deya ko‘ngillarimizga takror va takror kirib keluvchi shoiri inson qalbini o‘z qalb ko‘zi bilan ko‘ra oluvchi va uni yorqin ranglar, haqiqiy timsollar bilan qog‘ozga tushira oluvchi ijodkor edi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoiri po‘lat taftiga yo‘g‘rilgan xonadonda dunyoga kelgan bo‘lsada, yoshligidan she‘riyatga, ijodga qiziqar edi. Bunga albatta oilasidagi muhit ham ta‘sir qilgan. O‘zining ta‘biri bilan aytganda, mo‘jizalar yaratishga qodir, jahonni ko‘zga keng ochuvchi, insonni go‘zallik sari yetaklovchi so‘zga shaydolik hissini uning qalbida ostonaga hatlab ko‘chaga chiqmagan oddiy ayol– onasi uyg‘otgan.

16 yoshida xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olishni boshlagan Zulfiyaning “Men ish qizi” deb nomlangan ilk she‘ri “Ishchi” jurnalida bosilib chiqqan. Shundan keyin shoiri 1932-yilda “Hayot varaqlari” nomli ilk she‘riy kitobi bilan she‘riyat olamiga

¹ Zulfiya. Bahor keldi seni so‘roqlab. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. - 51 b.



kirib keldi. Bu kitobni eslab, Zulfiya shunday yozadi: “Bu to‘plamni varaqlab qolganimga ko‘zimga g‘o‘rlik va kamchiliklar yaqqol tashlanib, meni hijolatga soladi”. Garchi bu to‘plamdagi yigirmaga yaqin she‘rlardan ijodkorning hali tajribasizligi ko‘zga tashlansa-da, ular o‘zida yosh o‘zbek qizning har inson, har narsa-voqeaga hayrat va zavq-shavq bilan qarovchi, ularni o‘zining sodda tili bilan borligicha qog‘ozga qoralay oluvchi jo‘shqin qalbini aks ettiradi. Ushbu she‘rlardagi samimiyat, yorqin ranglar, hayotni teran anglovchi qalb keyinchalik Zulfiya ijodining yetakchi xususiyatiga aylanadi. Shoira umri davomida bir qancha she‘riy to‘plamlar, doston, opera-libretto va tarjima asarlar yaratdi. Uning she‘riyatida oliyjanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g‘ururi, tabiat, vatan va insonlarga nisbatan samimiy tuyg‘ular ufurib turadi. Go‘yoki Zulfiyaxonimning she‘rlari tillardan quloqlarga emas, balki qablarga kirib borayotgandek. Albatta, Zulfiyaxonim ijodining yuksalishida uning turmush o‘rtog‘i xalqimizning sevimli shoiri, bahor kuychisi Hamid Olimjonning ham o‘rni benihoya edi. U Zulfiya uchun nafaqat sevikli yor, sirdosh do‘st, balki uning ijodida mislsiz ahamiyatga ega ustoz ham bo‘la oldi. Hamid Olimjon Zulfiyaning she‘rlarini diqqat bilan o‘qir, uning yutuqlari va kamchiliklari haqida gapirar, lekin hech qachon ularga qalam tekkazmasdi. Bir gal u shoiraning yangi she‘rini o‘qib turib mehr bilan shunday degan edi: “She‘ringizni o‘qidim. Yaxshi. Nimaligini aytaymi? She‘rda qalbingizning surati bor. Bir parchagina bo‘lsa ham. U o‘zingizning qalbingiz. Xuddi shunday davom ettirish kerak. Ritorikasiz, haqiqatni yozish zarur...”. Ajab tarafi shundaki, ular ikkisi ham tabiatning erka farzandlari edi. Ular tabiatni, uning bor go‘zalligiyu, dilni mavjlantiradigan shovqinini, ko‘ngillarga sakinat baxsh etadigan sukunatini borligicha sevishardi. Uni o‘z tuyg‘ulariga burkab kuylashardi.

Ariq labidagi binafsha,
Kashf etadi o‘zi bir bahor.
Ko‘ngillarga beradi nash‘a,
Sayrab bulbul chiroyli nahor.

Bu misralarda ko‘rinib turibdiki, shoira bor ilhom manbaini ham tabiat deb bilgan. Shoiraning “Gullar ochilganda”, Bahor keldi seni so‘roqlab”, “Sog‘inib” nomli she‘rlarida o‘z hayotidagi, dilidagi so‘zlarini tabiatga qiyoslash orqali qog‘ozga tushirganligi va bu bilan har bir tinglovchining ham qalbini jumbushga keltira olganligini ta‘kidlash joiz. 1944-yildagi mash‘um voqea, ya‘ni shoiraning qalb qo‘ri, vafodor yori, do‘sti va maslakdoshi Hamid Olimjondan ayrilishi uning ijodida keskin burilish yasadi. U endi Vatan, tabiat, insoniyat va tinchlikni madh etibgina qolmay, ayriliq va hijron kuychisiga ham aylandi.



Seni kuzatganda oppoq qor edi,
Endi bahor keldi, bog'lar yam-yashil.
Seni esga solib gular ochildi,
Qaydasan, gul faslin sevgan toza dil?

Balki, Zulfiyani Zulfiya qilgan ham shu ayriliq ko'yida va lekin vafo-sadoqatga ko'milgan she'rlar edi. Hamid Olimjon vafotidan so'ng shoira turmush o'rtog'ining ijodini ham davom ettirishga, uning xotirasini abadiylashtirishga astoydil harakat qildi va bunga erishdi ham.

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam,
Tunlar tushimdasan, kunduz yonimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

Darhaqiqat, Zulfiyaning pokiza buloqlardan suv ichgan ijodi inson qalbini teshib o'tuvchi hijron haqidagi she'rlari bilan yanada yuksakroq mavqe kasb etdi. U ijod yo'lidagi shaxdam qadamlarini to'xtatmadi, farzandlarini kamol toptirish, vatan dovrug'ini dunyoga tanitish uchun bor mehnatini safarbar qildi. Jamoatda, jamiyatda, butun dunyoda o'z o'rnini topdi.

Mana bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
Tobuting boshida cho'kkanimda tiz,
Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib.
Shundan beri tikman. Har nega qalqon,
Baxtga, bahorga ham, qishga, qayg'uga,
Birov azasida yig'layman qon-qon,
Tobida yayrayman o'xshab ohuga.
Lekin qolganimda qalbim-la tanho,
Tuyg'ular zoriga solganda quloq,
O'zni zaif, chanqoq sezganda goho,
Alamdan beraman javobsiz so'roq:
Nega tiriklikda tashlab ketmading?²

Shoiraning yuqoridagi "Sensiz" nomli she'ri ham aynan Hamid Olimjonga atab yozilgan satrlardir. Zulfiya Hamid Olimjonni kut-kuta tana bir umrni yashaganini, o'sha baxtli lahzalaridagi shodliklarning qaytmasligini sezsa-da, uni kutib yashaganini yozadi. Hamid Olimjonning tobuti uzra tiz cho'kkan zamonida, unga

² Zulfiya. Bahor keldi seni so'roqlab. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. - 88 b.



farzandlari dalda, tirgak bo'lganini, o'sha ondan shoira farzandlarini uchun qayg'uni ham, g'ammi qarshi olishga tayyor tura bilishini anglab yetadi. Har zamon yolg'iz qolganida o'zini so'roqqa tutar,

Alamdan beraman javobsiz so'roq:

Nega tiriklikda tashlab ketmading?

deya ta'kidlar edi. Shunga qaramay shoira ijodan to'xtamadi, yozishda davom etdi. Zamondoshlarining ta'kidlashicha, Zulfiya hech kimga qattiq yoki qo'pol gapirmas, aksincha rahbar bo'lishiga qaramay o'zining muomalasi, xulq-atvori bilan ajralib turardiki, uni ko'rganda safdoshlarini shoira salobati bosar edi. Zulfiyaning zamondoshi Ozod Sharofiddinov u haqida shunday eslaydi: "U kishi shunday ulug'sifat ayol edilarki, har gal ro'para kelganimda darrov hushyor tortar, kiyim-kechaklarimni to'g'rilar, qadalmay qolgan tugmalarimni qadar, sochlarimni tekislab olardim – xullas, u kishining ko'ziga har jihatdan orasta bolib ko'rinishga tirishardim".

Shoira ijodi tahlikali urush yillarida ham to'xtamadi. Bil'aks, u o'zining millat g'ururi va sha'ni, yorqin kelajakka, g'alaba nashidasiga umid va da'vat qiluvchi she'rlari bilan butun xalqqa kuch, madad bo'la oldi. Ulug' Vatan urushi davrida shoira "Uni Farhod der edilar" (1943), "Hijron kunlarida" (1944) kabi to'plamlarining nashr etilishi Zulfiyaning peshqadam shoirlar qatoriga dadil kirib kelayotganligidan nishona edi. To'plamdagi she'rlar Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat va g'alabaga ishonch ruhida yaratilganligi bilan xarakterlidir. Zulfiyaning "Mening Vatanim", "Qo'limda qurol-u ustimda shinel", "Bizni kut" kabi umidbaxsh she'rlari urush davri o'zbek she'riyatining jangovar ruhini anglatuvchi asarlari qatoridan mustahkam o'rin olgan.³ "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" she'ri dunyoning qaysi tiliga tarjima qilingan bo'lsa, o'sha tilda so'zlagan onalarning nidosi bo'ldi, "Mushoira" esa Osiyo va Afrika yozuvchilari birdamlik harakatining madhiyasidek jarangladi.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya hayoti davomida chinakam sharq ayoli timsolini o'zida gavdalandira oldi. 1-Prezidentimiz Islom Karimov ta'riflaganidek "Uning jahon manbalarida yangragan she'rlari sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan". Darhaqiqat, o'z taqdirining butun sharaf va zahmatini yelkasida ko'tara olgan, o'zbek xalqining haqiqiy farzandi sifatida vatan ravnaqi uchun butun umr ijod va mehnatda sobit turgan Zulfiyaxonim Isroilovanning barcha ko'ngillarda Vatanga, tabiatga muhabbat, vafo va sadoqat, tinchlik va

³ <https://uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtirom/zulfiyaxonim>



xalqparvarlik olovlarini yoqib turuvchi, qablarga bevosita kirib bora oluvchi tushunarli va anglanarli she'riyati o'zbek xalqining yuragida mangu qolajak! Zotan shoira ijodini davom ettiruvchi Zulfiyaxonim izdoshlari albatta unga munosib avlod bo'lajak!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. Hamid Olimjon. Toshkent, „Yosh gvardiya“, 1990
2. Karimov N. Hamid Olimjonning poetik mahorati. Toshkent. „Fan“, 1964.
3. Mamajonov S. Shoir dunyosi. Toshkent. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
4. Karimov N. va boshqalar. 20 asr o'zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O'qituvchi“, 1999.
5. Abdurahonov A. Alangaga aylangan uchqun. „Kamalak“ adabiy-tanqidiy ilmiy to'plamda. -T. 1990.
6. Azimov S. Hamid Olimjon abadiyati. T., 1967 Sultonova M., Ijod sahifalari, Toshkent, 1975; Zulfiya [bibliografiya], Toshkent, 1977;
7. Umurova G. (2017). Zulfiya badiiy mahoratining ba'zi qirralari //O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent
8. G'aniyev I. va boshq. Shavkat rahmon olami.-Toshkent
9. SHarafiddinov O. Sizni sog'indim, Zulfiya opa! - Ijodni anglash baxti. - T., SHarq

